


Yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

2016-2020 yillar 1-fevral holatiga, fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'mida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

27 004
ro'yxatdan o'tgan
korxonalar

26 289
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar



503
Yangi tashkil etilgan korxonalar

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-fevral holatiga 27 004 tani tashkil etib, ulardan 26 289 tasi yoki 97,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 934 taga yoki 17,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar oyida 503 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,6 % kamaygan.

Ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda

14 487



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

550



Oilaviy korxonona

162



Unitar korxonona

6 947



Xususiy korxonona

29



Aksiyadorlik jamiyati

4 829




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat



xususiy korxonona




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar, soni




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda




2020-yil 1-fevral holatiga 21 946 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6 670 ta, oilaviy korxonalar - 538 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari 14 198 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 26 ta, unitar korxonalar 146 ta va boshqalar 368 tani tashkil etgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar oyida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha umumiy sonidagi ulushi




2020-yil yanvar oyida 503 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,6% kamaygan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 346 ta, xususiy korxonalar – 127 ta, oilaviy korxonalar – 16 ta, muassasalar – 6 ta va boshqalar – 8 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jamiga nisbatan ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar



2020-yil 1-fevral holatiga sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 5 529 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,9 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 122,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 87,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 113,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 77,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 135,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020-yil 1-fevral holatiga qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 963 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,8 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 120,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 55,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 112,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,3 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 131,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 37,4 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-fevral holatiga savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 7 097 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,7 % ga oshdi. Jami savdo korxonalarini va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 128,1 % ga (jami savdodagi ulushi 66,9 %), avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 141,6 % ga (jami savdodagi ulushi 24,7 %), avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 147,4 % ga (jami savdodagi ulushi 8,4 %) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



53

yashash bo'yicha xizmatlar




1 083

oziq ovqatlar mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-fevral holatiga yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 136 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,7 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, oziq ovqatlar va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 128,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 95,3 %), yashash bo'yicha xizmatlar – 132,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 4,7 %)


Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-fevral holatiga axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 384 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, televideniya dasturlari ishlab chiqish, ovoz yozish va musiqa asoslarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 95,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 5,2 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 129,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 21,6 %), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 106,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,0 %), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 80,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,1 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 101,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 21,1 %), aloqa xizmatlari – 124,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 37,0 %) o'sishidir.


Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 550 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 201 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 538 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 197 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda




Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-fevral holatiga 14 487 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 113 taga yoki 127,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 198 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 150 taga yoki 128,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Yanvar oyida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	Бoшқa түрлap Boshqa turlar
■ 2019 y.	2	1	1			1	1
■ 2020 y.	1	6		2	1		

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 419 ta), Chust tumani (2 131 ta), Namangan tumani (1 868 ta), Uychi tumani (1 658 ta) va To'raqo'rg'on tumani (1 597 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on tumani (1 314 ta), Norin tumani (1 180 ta) hamda Mingbuloq tumani (1 134 ta) tumanlari korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		Xorijiy korxonona	Qo'shma korxonona
Namangan viloyati	229	78	151
Namangan shahri	78	27	51
Mingbuloq	4	2	2
Kosonsoy	22	5	17
Namangan	11		11
Norin	11	4	7
Pop	18	4	14
To'raqo'rg'on	18	8	10
Uychi	18	3	15
Uchqo'rg'on	5	4	1
Chortoq	16	6	10
Chust	17	9	8
Yangiqo'rg'on	11	6	5


Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonona</i>	<i>xorijiy korxonona</i>
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	49	37	12
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	9	6	3
<i>Qirg'iz Respublikasi</i>	9	8	1
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	9	7	2


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil 1-fevral mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 5 897 ta (jamidagi ulushi 41,5 %), Namangan 983 ta (6,9 %), Uychi 946 ta (6,7 %), Chortoq 864 ta (6,1 %), Pop 856 ta (6,0 %), Kosonsoy 788 ta (5,6 %), Chust 747 ta (5,3 %) va Yangiqo'rg'on tumani 728 ta (5,1 %) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, eng kamlari Uchqo'rg'on 648 ta (4,6 %), To'raqo'rg'on 639 ta (4,5 %), Norin 633 ta (4,5 %), Mingbuloq 469 ta (3,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida kichik korxonalar va mikrofirmalarning faollik holatlari bo'yicha soni, birlikda




2020-yil 1-fevral holatiga kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 21 835 tani tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,5 % ga ko'pdir. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahri (8 159 ta), Chust (1 781 ta), Namangan (1 618 ta) va Uychi (1 373 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (877 ta), Norin (917 ta), Yangiqo'rg'on (1 012 ta), Chortoq (1 117 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.02.2019-yil	01.02.2020-yil
Namangan viloyati	693 905	17 779	21 946
Namangan shahri	160 552	7 179	8 207
Mingbuloq	29 014	639	881
Kosonsoy	47 285	1 064	1 302
Namangan	44 952	1 299	1 624
Norin	42 750	677	922
Pop	55 246	853	1 225
To'raqo'rg'on	56 156	1 068	1 317
Uychi	55 132	1 093	1 379
Uchqo'rg'on	42 544	841	1 161
Chortoq	44 815	858	1 123
Chust	59 120	1 447	1 793
Yangiqo'rg'on	56 339	761	1 012



2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi To'raqo'rg'on (8 ta), Namangan shahar (3 ta), Uchqo'rg'on (2 ta), tumanglari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1 ta), Namangan (1 ta), Chust (1 ta) tumanglari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyat
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel:71-230-84-96**